

**XALQARO SAVDONING ILMIIY-USLUBIIY ASOSLARI**  
**SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF**  
**INTERNATIONAL TRADE**

**НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ**  
**ТОРГОВЛИ**

Sodikov Zokir Rustamovich, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasida dotsenti, i.f.n.

Sodikov Zokir Rustamovich,  
International Islamic Academy Of Uzbekistan, PhD, docent of  
the Department of “The Islamic economy and finance, ziyarah tourism”.

Содиқов Зоқир Рустамович,  
доцент кафедрой “Исламская экономика и финансы, зиярах  
туризм” Международной исламской академии Узбекистана, к. э. н.

**Annotatsiya:** Maqolada tashqi savdo nazariyasining vujudga kelishi, unda merkantilizm va klassik maktablarning roli tahlil qilingan. Shuningdek, jahon resurslaridan unumli foydalanish yo‘llari, xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv jarayonlari, mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan ta‘minlanganligi va ular narxlarining xalqaro miqyosda nisbiy tenglashuvi o‘rganilgan.

**Abstract:** The article analyzes the emergence of the theory of foreign trade, the role of mercantilism and classical schools in it. It also studies the ways of efficient use of world resources, the processes of international division of labor and specialization, the provision of countries with factors of production and the relative equalization of their prices on the international scale.

**Аннотация:** В статье анализируется возникновение теории внешней торговли, роль в ней меркантилизма и классических школ. Также изучались пути эффективного использования мировых ресурсов, международного разделения труда и процессов специализации, обеспечения стран факторами

производства и относительного выравнивания их цен на международном уровне.

**Kalit so'zlar:** tashqi savdo, eksport, import, xalqaro savdo, mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv, ishlab chiqarish omillari, narx, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, jahon bozori, jahon iqtisodiyoti, savdo, tadbirkorlik, tashqi to'lov balansi.

**Key words:** foreign trade, export, import, international trade, division of labor, specialization, factors of production, price, national economy, economic growth, world market, world economy, trade, entrepreneurship, external balance of payments.

**Ключевые слова:** внешняя торговля, экспорт, импорт, международная торговля, разделение труда, специализация, факторы производства, цена, национальная экономика, экономический рост, мировой рынок, мировая экономика, торговля, предпринимательство, внешний платежный баланс.

Xalqaro savdo jarayonlarini tadqiq qilish faoliyati dastlab yevropa mamlakatlarida vujudga kelgan bo'lib, bu boradan dastlab, merkantilizm maktabi namoyondalari faoliyat olib borgan. Ma'lumki, o'rta asrlar feodalizmining rivojlanish davrida dengiz sayyohati natijasida ko'plab yutuqlarga asos bo'lgan buyuk geografik kashfiyotlar yangi qit'alarning ochilishiga va ularni o'zlashtirishga imkoniyat ta'minlab berdi. Yerkurrasining g'arbiy yarim sharida o'sha davrda topilgan katta hajmdagi oltinlar, ulardan pul sifatida foydalanish imkoniyatlarini mislsiz darajada ortishiga olib kelgan. Mazkur jarayonda milliy davlatlar mustahkamlanib, qudrati ortib borgan va ularning kuchlilari asta-sekin kuchsizlarini istilo qilib, o'zlarining mustamlakalariga aylantirgan hamda ta'sir doiralarini kengaytirish uchun kurash olib borgan. Bu jarayonlar shaharlarning iqtisodiy markazlar sifatida muhim ahamiyat kasb etishiga olib kela boshlagan.

Shunday tarixiy vaziyatda avtarkiya xarakteriga ega bo'lgan feodal nazariyalardan farq qiladigan va yangi xo'jalik tizimida tovarning ahamiyatini asoslaydigan hamda milliy davlatlarning boshqa chet mamlakatlarni bosib olishlari zarurligini isbotlashga qaratilgan umuman iqtisodiy nazariyalarga, xususan, tashqi

savdo borasidagi qarashlarga ehtiyoj sezilgan. Aynan, Merkantilizm ta'limoti namoyondalari ana shunday nazariyalarni o'rta tashlovchi sifatida yuzaga chiqqan. Zero, Merkantilizm iqtisodiy ta'limotlarning yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning asosiy g'oyalari yevropalik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning ta'limotiga binoan dunyoda cheklangan miqdordagi boyliklar mavjud bo'lib, mamlakatlarning qudrati ana shu boylikdan olgan ulushiga ko'ra belgilanadi.

Ko'proq ulushni qo'lga kiritgan davlat kuchli, aksincha bo'lgani esa kuchsiz hisoblangan va shuning uchun jahonda bir mamlakatning boyishi ikkinchisining kambag'allashuvi hisobiga yuz berishi mumkin deb tushunilgan. Demak, jahonda boylikning ko'payishi qayta taqsimlash orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgani uchun har bir mamlakat boshqa mamlakatlarga nisbatan afzallikka erishish maqsadida qudratli iqtisodiyot bilan bir qatorda kuchli harbiy salohiyatga va savdo flotiga ega bo'lishi talab qilingan. Merkantilistlar savdogarlarni-tadbirkorlarni iqtisodiy tizim muvaffaqiyatining asosi deb bilgan va mehnatni asosiy ishlab chiqarish omili sifatida qabul qilgan.

Shu bois, Merkantilistik maktab namoyondalari mamlakatlarning boyligi oltin va kumush miqdoridan iborat deb qaragan. Shuning uchun tashqi savdo orqali milliy mavqeyini mustahkamlash maqsadida davlat quyidagilarni amalga oshirishi lozimligini tavsiya qilgan. Jumladan:

- tashqi savdoda aktiv balansni ta'minlash;
- ijobiy savdo qoldig'ini ta'minlash maqsadida eksportni oshirish va importni cheklash uchun tashqi savdoni tarif va notarif vositalar orqali tartibga solish;
- chet elga xomashyo olib chiqishni batamom cheklash, mamlakatda mavjud bo'lmagan xomashyolarni xorijdan cheklovsiz va bojlarsiz import qilishni rag'batlantirish orqali oltin zaxiralarini ko'paytirishga va tayyor tovarlar narxini pasaytirishga erishish;
- mustamlakalarning mustamlaka qilgan mamlakatdan boshqa barcha mamlakatlar bilan har qanday savdo aloqasini cheklash va ularning bozorlariga faqat mustamlakachilarda ishlab chiqarilgan tovarlar sotilishini, ularda tayyor

tovarlar ishlab chiqarishni cheklash orqali mustamlakalarning xomashyo va oziq-ovqat bazasiga aylantirishni ta'minlash talab etilgan.

Bundan tashqari, hukumat eksportga subsidiyalar ajratgan, istemol tovarlar importiga bojxona bojlari joriy etgan, ayni paytda eksport qilinadigan tovarlarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan xomashyolarning importiga boj joriy etilmagan.

Xalqaro savdo nazariyasi uchun merkantilistlarning o'rni bu, ularning tashqi savdoning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatib, bera olishida namoyon bo'ladi. Zero, Merkantilistlar zamonaviy iqtisodiyotda qo'llaniladigan to'lov balansi tushunchasini ham birinchi bo'lib asoslagan va ilmiy muomalaga kiritgan.

Jahonda tashqi savdo masalasini merkantilistlardan keyin klassik maktabining namoyondalari keng va chuqur asosda ratsional tadqiq qilgan hamda ahamiyatini atroflicha ochib bergan. Xususan, A. Smit xalqlar boyligi jamlangan oltin yoki qimmat baho metallarning hajmiga binoan hisoblanmaydi. Balki, mamlakatlarning boyligi ishlab chiqarilgan va yaratilgan pirovard tovar va xizmatlar salohiyatidan iborat bo'lishi kerak ekanligini asoslab bergan. Shuning uchun mamlakatning iqtisodiy faoliyatdan ko'zda tutgan ustuvor vazifasi oltin va boshqa shu kabi noyob metallarga egalik qilishdan iborat emas, balki, eng muhim vazifa milliy iqtisodiyotda xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvni chuqurlashtirish orqali pirovard mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirishdan iborat ekanligini qayd qilgan.

Klassiklarning ta'limotiga binoan tadbirkorlar iqtisodiy jihatdan to'liq erkin va mavjud huquqiy mezonlar doirasida xohlagan faoliyat turlarini mustaqil tanlash shart-sharoitlariga ega bo'lgandagina eng muvaffaqiyatli natijalarga erishishi mumkin bo'ladi. Shu bois ular biznesni rivojlantirish maqsadida tadbirkorlarga qo'yib bering bajarsinlar, qo'yib bering o'zsinlar degan shiorni o'rtaga tashlagan yoki tadbirkorlar erkin bo'lishi kerakligiga urg'u bergan.

Shuning uchun xalqaro savdo munosabatlarida, bu ta'limot mualliflari, mamlakatlar o'zlari ishlab chiqarish xarajati yoki unumdorligi borasida afzallikka ega bo'lgan tovarlarni tayyorlashga ixtisoslashishi va ularni, boshqa tovarlarni

ishlab chiqarish borasida xarajat yoki unumdorlik xususida afzallikka ega mamlakatlar bilan ayirbosh qilishlari milliy va jahon farovonligini yuksalishiga olib kelishini bayon qiladi. Shu asosda mutloq afzallik nazariyasining mohiyatiga ko'ra, mamlakatlar o'zlari eng kam xarajat bilan ishlab chiqaradigan mahsulotlarni eksport, aksini esa import qilishi maqsadga muvofiqligini tushuntirgan. Natijada, mazkur vaziyat har bir mamlakatning ixtisoslashuviga va eksport qilishiga sharoit yaratadi hamda xalqaro savdo har bir mamlakat uchun manfaatli bo'lib, jahonda mehnat taqsimotining samarasi ta'minlanadi.

Zero klassiklar tomonidan o'rta tashlangan mutlaq afzallik nazariyasining kuchli tomoni bu, mehnatning qiymat nazariyasiga asoslanganligida bo'lib, u mehnat taqsimotining yutuqlarini milliy bozorda ham, balki xalqaro miqyosda ham isbotlab bergan. Tashqi savdo jarayonlarini tushuntirib berishda mutlaq afzallik nazariyasi qamrab olmagan jihatlar ham mavjud bo'lib, u muammoli jihatlar D.Rikardoning nisbiy afzallik nazariyasi doirasida hal qilingan. Ya'ni D.Rikardo mutlaq afzallik nazariyasini takomillashtirib, nisbiy afzallik nazariyasini o'rta tashlangan. Nisbiy afzallik nazariyasiga binoan ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro savdo, ulardan hech biri muayyan tovarni ishlab chiqarish borasida mutlaq afzallikka ega bo'lmasa ham, manfaatli bo'lishini bayon qilib bergan. Mazkur nazariya haqida A.Vaxabov "Nisbiy afzallik-agar mamlakat boshqa mamlakatga nisbatan kam xarajatlarni ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashsa, o'zaro savdo ikkala mamlakat uchun ham foydali bo'ladi. Bunda ishlab chiqarish bo'yicha mutlaq afzallik bo'lishi shart emas" deb<sup>1</sup> nazariyaning tub mohiyatini ochib bergan. Nisbiy afzallik nazariyasiga ko'ra, muayyan mamlakat boshqa mamlakat bilan taqqoslaganda nisbatan kam xarajat bilan ishlab chiqariladigan tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashsa ularning birida ishlab chiqarish boshqasiga nisbatan mutlaq samarali bo'lmasada o'zaro savdo har ikki mamlakat uchun nafli bo'ladi. Albatta, nisbiy afzallik nazariyasi mavhum va juda soddalashtirilgan xususiyatga ega va tashqi savdoga bevosita

---

<sup>1</sup>Vaxabov A.V. va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. Baktria press, Toshkent: 2015. 255-256-b.

ta'sir ko'rsatadigan bir qator omillarni e'tiborga olmagan. Tashqi savdo mavzusiga oid nazariyalardan yana biri Xeksher-Ohlinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi hisoblanadi. Unga ko'ra, omil sig'imligi ma'lum bir tovarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillari nisbiy sarfini, omil serobligi esa mamlakatning ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasini ko'rsatadi. Turli mamlakatlarda tovarlar nisbiy narxidagi farq, o'z navbatida ular o'rtasidagi savdo bu davlatlarning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil darajada ta'minlanmaganligini ko'rsatadi. Tashqi savdoga oid nazariyalardan yana biri, bu xalqaro savdoning standart modeli bo'lib, u xalqaro savdoda umumiy muvozanat modeli hisoblanadi va mamlakatda tovar talabi bilan taklifini shu tovarga xorijiy talab bilan taklifni o'zaro bog'laydi.

Ushbu ta'limotga binoan har xil tovarlarning eksportiga xoxish bo'lishi uchun mamlakat importi zaruriy bo'lgan tovarlar miqdorini ifodalovchi talab vaziyatiga asoslangan. Shu bois bu model tashqi savdoning barcha asosiy parametrlari bilan bog'liq bo'lgan milliy iqtisodiyotning ko'rsatkichlarini tadqiq qilish imkoniyatini beradi. Zero, tashqi savdoda ishtirok etuvchi har qanday mamlakat uchun eksport va import shartlarining har qanday ko'rinishdagi o'zgarishlari real daromadning o'zgarishini bildiradi. Shu bois tovar narxi oshganda, u eksport qilinayotgan bo'lsa, mamlakatning real daromadi ortadi, agar, bu tovar import qilinayotgan bo'lsa, aksincha, real milliy daromad kamayadi. Muayyan tovarning eksport va import narxlari nisbati yoki eksport va import narxlari indeksleri eksport va import tovarlarining tashqi savdo shartlarini bildiradi. Shu bois mamlakatning savdo shartlari yaxshilansa, uning eksport daromadlari ortadi, aksi bo'lsa, kamayish tendensiyasi kuzatiladi.

Globallashuv sharoitida muayyan mamlakatda taklif yoki talabning o'zgarishi uning savdo shartlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro hamjamiyatda tashqi savdo jarayoni mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanishi nuqtayi-nazaridan ham turli mutaxassislar tomonidan keng tadqiq qilingan. Bu tadqiqotlarga binoan xalqaro miqyosda ishlab chiqarish omillari narxlaridagi nisbiy farqlar u mamlakatlarning mazkur ishlab chiqarish

omillari bilan notekis ta'minlanganligi uchun kelib chiqqan, degan xulosa qilingan. Shuning uchun mazkur nazariya borasida mutlaq va nisbiy afzallik nazariyalari singari qator gipotezalarga tayanilgan. Shundan kelib chiqqan holda bu nazariya "ishlab chiqarish omillari nisbati" yoki tadqiqotchilar nomiga tayanib "Xeksher-Ohlin" nazariyasi deb talqin qilingan.

Demak, Xeksher-Ohlin nazariyasiga ko'ra har bir mamlakat ishlab chiqarish faoliyatini o'zida nisbatan ko'p bo'lgan ishlab chiqarish omilini intensiv talab qiluvchi tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashtirishi va u tovarlarni eksport qilib, aksinchalarini import qilish orqali resurslardan samarali foydalanishga va jahonda farovonlikni oshirishga erishish mumkin. Jahonda tashqi savdoni erkin amalga oshirish natijasida ayirbosh qilinayotgan tovarlarning nisbiy narxlari bir-biriga yaqinlashadi. Tovarlarning nisbiy narxi mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik holatiga bog'liq bo'ladi va ishlab chiqarish omillari narxiga ta'sir ko'rsatadi. Bu vaziyat P.Samuelsan tomonidan tadqiq qilingan va u Xeksher-Ohlin teoremasidan kelib chiqib ishlab chiqarish omillari bahosining xalqaro miqyosda muvozanatga kelishini isbotlab bergan. Shu bois u Xeksher-Ohlin-Samuelsan teoremasi sifatida talqin qilingan. Shu bois erkin tashqi savdo olib boruvchi mamlakatlarda turdosh (gomogen) ishlab chiqarish omillarining mutlaq va nisbiy narxlari muvozanatga kelishi qonuniyatligi isbotlangan. Shundan kelib chiqqan holda tovarning omil sig'imlilik muayyan tovarni tayyorlash uchun ishlab chiqarish omillari nisbiy sarfi ustunligini, omillar serobligi esa mamlakatning mazkur ishlab chiqarish omili bilan nisbatan ustun ta'minlanganligini bildiradi. Demak, Xeksher-Ohlinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasiga ko'ra, turli mamlakatlarda tovarlar nisbiy narxidagi farq va ular o'rtasidagi savdo bu mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil nisbatda ta'minlanmaganligi tufayli kelib chiqayotganligini bildiradi.

Xalqaro savdo ilmi nuqtayi-nazaridan Xeksher-Ohlinning nazariyasi o'zining ayrim nuqsonlari va mavhum jihatlari bilan bir qatorda bugungi kunda mamlakatlardagi tashqi savdoning rivojlanish xususiyatlarini ochib berishda ahamiyatiga ega bo'lmoqda. Shuning uchun bu ta'limot turli mamlakatlar va

ularning tashqi savdosidagi tovarlar tarkibining omil sig‘imligi borasida bir necha marotaba empirik usulda tadqiq qilingan. Xususan, bu borada amalga oshirilgan yirik tadqiqotlardan biri bu Chikago universitetining professori va nobel mukofoti lauriyati V.Leontevning AQSh eksporti va importi asosida amalga oshirgan izlanish hisoblanadi. Aslida Xeksher-Ohlin nazariyasi V.Leontev tomonidan “input-output” jadvali ishlab chiqilgunga qadar amalda sinab ko‘rilmagan. Chunki ungacha tovarlarning omil sig‘imligini belgilaydigan mezonlar mavjud bo‘lmagan. Bu vaziyat V.Leontev tomonidan “input-output” jadvali ishlab chiqilgandan so‘ng yechimini topgan va birinchi marta V.Leontevning o‘zi Xeksher-Ohlin nazariyasini AQShning tashqi savdosi misolida empirik test asosida tekshirib ko‘rgan.

Xeksher-Ohlin nazariyasiga binoan ikkinchi jahon urushidan keyin AQSh sarmoya serob mamlakatlardan biri bo‘lib, boshqa mamlakatlarga nisbatan ish haqi to‘lash darajasi yuqori, sarmoyaning foiz stavkasi past bo‘lganligi uchun sarmoya sig‘imli tovarlarni eksport, aksini import qilishi asosiy mantiqiy xulosa hisoblangan. Shu bois, V.Leontev tadqiqotida Xeksher-Ohlin nazariyasiga muvofiq, eksport tovarlari import o‘rnini bosuvchi tovarlarga nisbatan har bir ishchi kuchi hisobiga nisbatan ko‘proq sarmoya talab qilishini kutgan. Ammo, tadqiqot natijasida buning ziddi kelib chiqqan va AQSh importining sarmoya talablilik darajasi eksport tovarlarga qaraganda 30 foiz darajasida yuqori chiqqan. Ya’ni, tadqiqot natijasida AQSh sarmoyaga boy mamlakat sifatida emas, balki, mehnat serob mamlakat sifatida namoyon bo‘lgan. Mazkur, natija Xeksher-Ohlin nazariyasi o‘rtaga tashlagan xulosaga nisbatan to‘liq teskari yoki paradoks bo‘lgan va shu bois bu tadqiqot Leontev paradoksi nomini olgan. Leontev paradoksi — bu Xeksher-Ohlin nazariyasining umumiy xususiyatga egaligini yuzaga chiqargan va asosan iqtisodiyoti taraqqiy etgan davlatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi savdo jarayonlarini ochib berishga yo‘nalgan. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar Yaponiya, Hindiston, Misr va Turkiya mamlakatlarining eksport va importlari misolida o‘rganilgan bo‘lib, ulardan kelib chiqqan natijalar Xeksher-Ohlin ta’limotida o‘rtaga tashlangan g‘oyalarni isbotlagan.



## **Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi (2023-yil 11-sentabr, PF-158-son) farmoni
- 2.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston, T.: 2017.
- 3.Vaxabov A.V. va boshqalar Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. Baktria press, T.: 2015.
- 4.Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International economics: theory and policy. 12 th edition. Harlow, Essex: Pearson, 2023, 817p.
- 5.Dominick S., International economics. Printed in the USA /. – 13th ed. 2019. 720 p.
- 6.Thomas A. Pugel. International Economics. Printed in the USA /. – 18th Edition. 2024.
- 7.Tuxliyev N. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida yangi trendlar. Monografiya.– T.: “Ilm-Ziyo-Zakovat”, 2021. – 72 b.
- 8.<https://www.stat.uz>
- 9.<https://www.cbu.uz>
- 10 .<https://wdi.worldbank.org/tables>